4. Саноат жараёни амалга ошириш учун мўлжалланган реакторларида метанни ҳаво кислороди иштирокида водород хлорид таъсирида каталитик оксихлорлаш ва монохлорметанни ҳавосиз жойда юқори ҳароратларда қиздириш жараёни қилиш реакцияларини ўтказиш шартлари аниқланган.

5. Жараёни биринчи навбатда этиленга эҳтиёжи кам винилхлорид ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва хлорид кислота ва хлорли углеводородлар билан ишлаш тажрибасига эга бўлган заводларда амалга ошириш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Chen J.Q., Vora B.V. Most recent developments in ethylene and propylene production from natural gas using the UOP/Hydro MTO process. // 7th Natural Gas conversion Symposium. Dalian, China, June 6-10. -2004. -abs. 1-01-071.

2. Zhao T-S., Takemoto T., Tsubaki N. Direct synthesis of propylene and light olefins from dimethyl ether catalyzed by modified H-ZSM-5. // Catalysis Communications. -2006. -V. 7. -P. 647.

3. Шевчук В.У., Абаджев С.С., Пзих И.П., Крупей Т.И. Получение непредельных углеводородов из метана через метилхлорид. // Химия твердого топлива. -1993. -№ 2. -С. 89.

4. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Тимошенко А.В. Получение низших олефинов из природного газа через синтез и пиролиз хлористого метила // Газохимия, 2010, № 2. С. 44–50.

5. Wei Y., Zhang D., Liu Z., Su B-L. Highly efficient catalytic conversion of chloromethane to light olefins over HSAPO-34 as studied by catalytic testing and in situ FTIR. // Journal of Catalysis. -2006. -V. 238. -P. 46.

6. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Луньков С.А., Мурашова О.П., Дасаева Г.С. Каталитический пиролиз метилхлорида для получения этилена и пропилена. // Катализ в промышленности, 2009. -№ 2. -С. 14.

7. Моисеев И.И. Газ и этилен. Альтернатива нефти – есть // Chem. J. (Химический журнал). 2008. № 4. С. 28–31.

8. Wei Y., Zhang D. Highly efficient catalytic conversion of chloromethane to light olefins over HSAPO-34 as studied by catalytic testing and in situ FTIR // J. Catal. 2006. V. 238. № 1. P. 46–57.

9. Svelle S., Aravinthan S., Bjørgeren M., Lillerud K.-P., Kolboe S., Dahl I.M., Olsbye U. The methyl halide to hydrocarbon reaction over H-SAPO-34 // J. Catalysis. 2006. V. 241. № 2. P. 243–254.

10. Wei Y., Zhang D. Methyl halide to olefins and gasoline over zeolites and SAPO catalysts: A new route of MTO and MTG // Chin. J. Catal. 2012. V. 33. № 1. P. 11–21.

11. Wei Y., Zhang D., Xu L., Chang F. Synthesis, characterization and catalytic performance of metal-incorporated SAPO-34 for chloromethane transformation to light olefins // *Catalysis Today*. 2008. V. 131. P. 262–269.

12. Izadbakhsh A., Farhadi F., Khorasheh F., Sahebdehfar S., Asadi M., Feng Y.Z. // Effect of SAPO-34's composition on its physico-chemical properties and deactivation in MTO process // *Appl. Catal. A:General*. 2009. V. 364. P. 48–56

13. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Флид М.Р. Каталитический способ переработки метана. // Заявка № 2008115140/04 (016915) от 22.04.2008 г.

14. Трегер Ю.А., Розанов В.Н., Тимошенко А.В. Получение низших олефинов из природного газа через синтез и пиролиз хлористого метила // *Газохимия*, 2010, № 2. С. 44–50.

15. Aslanov, S.C., Vuxorov, A.Q., Fayzullayev, N.I. Catalytic synthesis of C₂-C₄-alkenes from dimethyl ether// *International Journal of Engineering Trends and Technology*, 2021, 69(4), стр. 67–75

TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRYATLARNING O'RNI

Mahmudjon Nishanov

UBS Pedagogika va psihologiya kafedrasi dotsenti

G'aybullaev Bobur Nomonjon o'g'li

gaybullaev@gmail.com

UBS Pedagogika va psihologiya magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalari mutafakirlarning qarashlari, g'oyalari, yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Odob - axloq, tarbiya, insonparvarlik, mehnatsevarlik, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, qadriyat

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya- Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k. ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak o'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi.

Milliy - biror millatning, xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar—millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlardir.

O'zbekistonda ta'lim va tarbiya rivojlanishi milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Vatanimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mavqeni egallaydi. Umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarning shakllanishi milliy madaniyatlarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Bu borada O'zbekistonning

Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz o'z taraqqiyotimizni o'zga mamlakatlar taraqqiyotidan ayri tasavvur eta olmaymiz va hamma narsa biz o'zimizga bog'liq bo'lib qolavermaydi». Bu o'rinda aynan umuminsoniy qadriyatlarga urg'u berilgan. Negaki, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar o'zaro bog'liq bo'ladi va bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Umuminsoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarini ifoda etadi. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik yoshlarimizni to'g'ri yashab, o'z o'rnini topishga, yon-atrofga oqilona munosabatda bo'lishga, tug'ilib o'sgan diyorini muqaddas deb bilishga hamda do'stlikning qadriga etishga o'rgatadi. Milliy qadriyatlar esa shu millat, shu yurt xalqlari tomonidan tarixdan e'zozlab kelinayotgan, inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladigan qadriyatlardir. Milliy qadriyatlarda mehnatsevarlik, tarixiy xotiraga sadoqat, e'tiqodga hurmat, muomalada mulozamat, xayo va andisha muhim o'rin tutadi.

Yurtimiz hududida azaldan ta'lim va tarbiyaga bir-biridan ajralmas uzviy bog'liq tushunchalar sifatida qaralgan. Bunga albatta, o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lgan. Asrlar mobaynida shakllangan ustoz-shogird tizimi, ta'lim-tarbiya ishlari milliy – ma'naviyatimiz bilan hamohang holda olib borishi natijasida, u ahloq-odob normalari bilan boyitildi va bugungi kun ko'rsatib turgandek tarixda o'zini oqladi.

“O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ushbu haqiqat davlat siyosati darajasigan ko'tarilishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifatdir. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, xususan ta'lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari aniq belgilab olindi.

Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

- Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy - axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ta'lim-tarbiyaning ma'naviy negizlari mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulqatvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo'yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi. Ta'lim-tarbiyaning milliy-ma'naviy negizlari to'g'risida gapirilganda oilaning roli nihoyatda muhim ekanligini unutmazlik darkor. Sababi, inson dastlab oilada birinchi bor ta'lim va tarbiyani asoslari bilan tanishadi. Asrlar mobaynida shakllanib kelgan urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizdan habar topadi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgarlar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Bundan tashqari ta'lim muassasasida o'quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, ta'lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo'lib, uning asosiy mohiyati o'quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo'lishni, ta'lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Shundan ko'rishimiz mumkinki, ta'lim-tarbiya tizimida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish yuqorida ta'kidlangan jihatlar orqali o'z tarixini bilish, anglash va g'ururlanish hissini yoshlar ongida shakllantiradi. Prezidentimiz ta'kidlagani kabi, "Ta'lim-tarbiya — ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir"- deb ta'kidlashi negizida mazkur haqiqatlar g'aydalanadi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasmlariga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamonaviy qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy ma'naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va

serqirra, o`zaro uzviy aloqadorlikda bo`lgan sohalaridir. Ma`naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g`oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma`lum davrlarida ma`naviyat va milliy g`oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo`lib maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q // Muloqot jurnali, № 5, 1998 yil
2. Jahongir Burhan Burhanovich. O`zbekistonda ilm-fan holati, taraqqiyot yo`nalishlari (1980-2010 yillar). Monografiya. "Qaqnus media" nashriyoti, Toshkent. 2020. -b.58
3. Karimov I. A. YUksak ma`naviyat - engilmas kuch. Toshkent. "Ma`naviyat". 2008. -b.19
4. Mirziyoevning SH.M. O`qituvchilar va murabbiylar kuniga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil, 30-sentabr.
5. Karimov I. A. O`zbekiston XXI asrbo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O`zbekiston», 1997, 137-bet.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O`qituvchi. 1992 y.
8. Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T.: "Ma`naviyat". 1997.

**OILADA BOLA TARBIYASIDAGI MUAMMOLAR VA BOLANING
MA'NAVIYATIGA VA MADANIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR
HAMDA UNDAN HIMOYALANISH CHORALARI**

*Pulatov Hayotbek Abdugan o'g'li – CHDPU talabasi
Koshanova Nilufar Maqsudovna - CHDPU dotsent v.v.b*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda bugungi kunda farzandni tarbiyalashda oila a'zolari nimalarga e'tiborli bo'lishi lozimligi, farzandning ma'naviy kamol topishida hamda madaniyatli shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida oilaning maktabning va tashqi muhitning ta'siri va tashqi muhitdan keladigan zarar yetkazuvchi omillarga qarshi qanday kurashish kerakligi aynan ma'naviy immunitetning shakllantirishning muhimligi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: madaniyat, ma'naviyat, komil shaxs, ma'naviy immunitet, tarbiya, din, ilm, huquqiy madaniyat, huquqbuzarlikka moyillik, omillar ta'siri,

Bugun biz zamonaviy dunyoda ya'ni internet takomillashgan asrda istiqomat qilmoqdamiz. Bu yangilanishlar va qulayliklar yaxshi lekin bir naqlni yoddan chiqarmasligimiz kerak "Har narsaning bir yaxshisi bo'ladi – yaxshi deb ishonma pand berib qo'yadi". Bu naqldan shuni anglash mumkinki, internet va qulayliklar yaxshi biroq bu bilan birga internet oqimlari va turli g'ayrimadaniy g'oyalar ham kirib kelmoqda.

Keling avvalo, madaniyat va ma'naviyat tushunchalarini qisqcha yoritib o'tsak.

Madaniyat haqida so'z borganda madaniyat haida ko'plab olimlar turlicha fikr bildirishgan va unga turlicha ta'riflar keltirishgani barchamizga ma'lumligini anglashimiz mumkin. Shu ta'riflardan kelib chiqiqb madaniyatga quyidagicha yondashadigan bo'lsak :

Madaniyat bu – umumiy bir yaxlit tizim deya qabul qilsak, har qanday hodislar jumladan ma'naviy hodisalarning umumiy jihatlarini nazariy tarzda ifodalaydi va ma'naviy hodisalarning jamiyatda namoyon bo'lishini amaliy jihatlarini ham o'rganadi.^[1]

Madaniyat boshqa jihatdan olib qaraganda "odob" tushunchasi bilan bir ma'noda qo'llanilishini inobatga olsak, madaniyat g'arb nuqtai nazardan butun jahon miqyosida keng qo'llaniladi. Odob esa aynan musulmon olamida madaniyat tushunchasi o'rnida qo'llaniladi.^[2]

Madaniyat tushunchasi "madaba" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'naviy ziyofat degan tushunchaga yaqin hisoblanadi.^[3] Ma'naviy ziyofatda esa albatta ziyolilar yig'ilib o'qigan asarlarini, savdogarlardan eshitgan yangiliklarni va yangi asar

yozayotgan bo‘lsalar o‘zaro fikr almashinadilar desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz albatta.

Yuqorida biz ma‘naviyat tushunchasini ko‘p bora tilga olib o‘tdik. Keeling endi qisman ma‘naviyat tushunchasiga ham tushuntirish berib o‘tadigan bo‘lsak manfaatli bo‘ladi.

Ma‘naviyat tushunchasi keng ma‘noda qo‘llaniladigan yirik tushunchalardan sanaladi. Bu tushunchaga ham Sharq va G‘arb mamalakati olimlari, ziyolilari, mutafakkirlari ko‘pgina ta‘riflarini berib fikrlarini bildirib o‘tganlar.

Jumladan, so‘z mulkingning sultoni bo‘lmish Nizomiddin Mir Alisher xazratlari o‘zining turkey tilde yozilgan besh dostonidan iborat bo‘lgan “Hamsa” asarida inson ma‘naviyatini va komil shaxsni shu darajada tasvirlaganki, bu asarini o‘qigan har qanday inson bundan ma‘naviy quvvat olmasdan qolmaydi. Ushbu asarida chin muhabbat qanday bo‘lishligi, chin do‘stlik qanday bo‘lishligi, qolaversa rahbarlik qiluvchi shaxsning ma‘naviy kamoloti qanday ko‘rinishda bo‘lishligi va bunda nimalarga e‘tibor berish lozimligi haqida takrorlanmas fikrlar bitilgan ulkan ma‘naviy boylik desam adashmagan bo‘laman.

Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-Abror” asarida odob va axloq haqida shunday fikr bildiradi: “Masxaraboz kulgu uyg‘otishi uchun bir diram deb naq ikki shapaloq yeydi. Boyo‘g‘li ham o‘z ko‘rinishi jihatidan masxarabozga o‘xshab ketgani uchun hujum qiladilar. Bu masxarabozliklarning barchasi hayo va odob kelsa darhol daf bo‘ladi. Har bir aql-hushli inson o‘z so‘zini aql bilan so‘zlaydi”.^[4] Bundan ko‘rinadiki, inson o‘zining odobi bilan go‘zal bo‘lishi, inson xushxulq bo‘lishi, o‘zidan kattalarni hurmatlashi kichik yoshdagilarga esa izzat-ikromda muomalada bo‘lishi lozimdir. Bugungi yoshlarimiz bundan ancha ibrat olishsa arziydi.^[5] Sababi, Alisher Navoiy bundan VI asr avval insonlar masxaraboz va boyo‘g‘liga o‘xshab to‘g‘ri kelgan gaplarni gapirmasligi, suxbatdoshining katta yoki kichik ekaniga e‘tibor berishi kabi yoritgan xislatlar bugungi kun uchun ham munosib axloqiy qarash bo‘lib xizmat qiladi. Bugun biz farzandlarimizni boyo‘g‘lidek yoki masxarabozdek qilib jamiyatga tayyorlab bermoqdamiz qaysidir ma‘noda bugungi yosh avlodni tarbiyalashda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yib kelmoqdamiz. Ibn Sinoning ta‘biri bilan aytganda–“farzandni ona qornidaligidayoq tarbiyalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yib qo‘ymoqdamiz”. Yoshlarning turli buzuqilikni targ‘ib qiluvchi, jinoyatchilikka undosvchi materiallarni toosha qilishiga yo‘l qo‘yib bermoqdamiz. Ilk mustaqillik vaqtidan 2014-yilgacha bo‘lgan vaqtni oladigan bo‘lsak, hamda bugungi yangi o‘zbekiston yoshlarini imkoniyatlarini solishtiradigan bo‘lsak naznimizda imkoniyat ko‘p ammo sifat va o‘sish pasaygan ilgari davrda imkoniyat bu darajada bo‘lmagan ammo, nisbatan sifat yuqori bo‘lgan. Farzandlarimizni tarbiyalashda dunyoviylikka emas diniy ilmlarga ham kuchli e‘tibor qaratishimiz dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Farzandlarimizni axloqli, ma‘naviyatli, madaniyatli qilib tarbiyalashda ishtirok

etayotgan barcha shaxslar bir yoqadan bosh chiqarib harakatni va tizginni mahkamroq ushlashi hamda bu tizginni axloqsizlik va ma'naviyatsizlik hamda jinoyatchilikni targ'ib qilib kelayotgan o'rgimchakka berib qo'yimasligimiz shart deb o'ylaymiz. Axloq va tarbiya borasida o'rta asr mutafakkirlaridan biri Imom al-Buxoriy o'zining "Al-adab al-Mufrat" asarida quyidagicha hadis keltiradi - "Abu Dardo (r.a) rivoyat qiladilar: **"Rasululloh (s.a.v): "Kimgaki muloyimlikdan nasiba berilgan bo'lsa, unga yaxshilikdan nasiba ato qilingan bo'ladi va kim undan mahrum qilingan bo'lsa, yaxshilikdan ham mahrum bo'lgan bo'ladi. Qiyomat kuni mo'min bandaning tarozusi og'ir qiladigan narsa yaxshi axloqdir. Alloh Taolo yomon so'z va yomon fe'llik kishiga albatta g'azab qiladi"**, dedilar^[6]. Yuqorida keltirilgan hadisni tahlil qiladigan bo'lsak, tarbiyali, xushxulq bo'lsa albatta Ka'ramli zotning marhamatiga sazovor bo'ladi. Aksincha, yomon xulqli, badfel kimsalar esa Yaratganning g'azabiga duch keladi. Shu badfel inson o'z xatolarini anglab, qilayotgan ishlarini to'xtata olsa va irodasini bunda sobit etib, ma'naviyatini oziqlantirib, oziqlagan ma'anaviyati orqali butun ruhini poklay bilsa albatta marhamatli zot bandasining harakatlarini ko'rib gunohlarini kechirishi haqiqatdan holi emas.^[7] Qiyomat kuni kelganida birinchi navbatda farzandning yomon tarbiya topganligidan uning yaqinlari aziyat chekadi, ikkinchi navbatda bunga e'tiborsizlik bilan qaragan va shogirdini vaqtida to'g'ri yo'lga qaytarmagan yoki qaytaerishga harakat qilmagan ustozni aziyat ko'radi, keying o'rinda o'zi bila turib yomon yo'lga kirgani boisdan aziyat ko'rishi mumkinligini tushuntirish mumkindir

Muhataram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ma'anaviyat borasida Sunday fikrni ilgari suradi; - **"Ma'anaviyat – insonni ruan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odanning ichki dunyosi,irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir"**.^[8] Demak bundan shuni anglash mumkinki, insonni ruhan poklanishga va qalban uyg'onishga chorlovchi eng kata kuch bu uning ma'naviyati hisoblanadi. Madaniyat esa,shu kuchni yuzaga chiqarish ko'nikmasi hisoblanadi.hamkorlik deganda ham aynan shu narsaga urg'ni berish to'g'ri bo'ladi.ota-ona farzandida ma'naviyatsni shklantirishga ko'maklashsa, ustozni shakllanayotgan ma'naviyatni yanada boyitib uni jamiyatda namoyon etishga o'rgatadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich 2024-yilni yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb nomaganligi ham bejizga emas albatta. Bu degani yoshlarga kelgusida yanada ko'p imkoniyatlar eshigi ochilishi, ularni diplomga emas aynan bir sohaga o'qishiga imkoniyat yaratish va yetuk, o'z kasbining halol va yetuk kadri bo'lib yetishishga poydevor bo'ldi deya olamiz.

Mavzumzning dolzarb masalasiga aylangan farzand tarbiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ulardan himoyalani borasida yakuniy yechimlarni berib o'tadigan bo'lsak, bugungi globallashuv davrida 7 yoshdan 70 yoshgacha qaraydigan

bo'lsak har birining qo'lida zamonaviy rusumdagi uyali aloqa vositalarini ko'rishimiz mumkin. Farzand tarbiyasiga jiddiy ta'sir etayotgan katta omillardan biri mana shu hayotimizning bir bo'lagiga aylanib qolgan vositadir. Oila davrasida, dasturxon atrofida, o'zaro suhbatlashi vaqtlarida ovunchog'imiz farzandimiz emas balki qo'limizdagi shu telefondir. Farzandimiz mehr talab qilib yonimizga kelganida unga mehr berish emas fikri-hayolimiz ijtimoiy tarmoqda bo'layotgan voqelikdaligi va farzandni o'zidan itarib uning dilini xunob qilayotganimizdadir. Farzandimizning kunini 4 soati maktabda o'tganini bila turib u bilan qiziqmaslik, maktabda olgan ilmi haqida so'ramaslik ham jiddiy xatoliklarimizdan biridir. Frzandimiz ustozidan ozgina dakki eshitsa farzandning tomoninni olib ustozni uning oldida obrosizlantirish va behurmat qilib haqoratlashimiz farzandning ustozga va ilmga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgarishiga jiddiy sababdir. Farzandimizga eng qimmat rusumli telefon olib berishga qurbimiz yetadi xattoki olib beramiz ham ammo uning nazoratiga kelganda tizginni bo'sh qo'yayotganimiz, farzandga internetga kirishni o'rgatyabmizku ammo internet odobini o'rgatmasdan qoldirayotganimiz bu ham madaniyatsiz shaxsning bittaga ko'paytishimizga sabab bo'layotgan harakatimizdir.

Agarada biz yuqorida keltirilgan xatolarimizni, kamchiliklarimizni ma'nan anglab yetsak, farzandimizga telefon oberishdan oldin telefon odoblari, internet odoblaridan tushuncha berib farzandni tayyorlab keyin telefon olib bersak, olib bergan telefonimizdan u nima maqsadda foydalanayotganligiga jiddiy ahamiyat qaratsak, farzandimizga mehr berib ustozlari bilan hamkorlikda unga ham ma'nan ham madaniyat, ham jismonana, ham ruhan madad berib qo'llab quvvatlasak albatta jamiyatga kelgusida barkamol shaxsni yetishtirib beramiz va uning orqasidan faqat tuxmat, ta'na-dashnomlar emas balki shirin so'z va rahmatlar eshitamiz albatta. Bularning barchasini izchil yo'lga qo'yish uchun avvalo ota-onalarni ham qaytadan tarbiyalashimiz zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev M, Ochildiyev A 'Madaniyatshunoislik asoslari' darslik. Toshkent 2006 (5-bet)
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 'Ijtimoiy odoblar' asari "HILOL – NASHR" T:2021 (6-bet)
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 'Ijtimoiy odoblar' asari "HILOL – NASHR" T:2021 (6-bet)
4. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-Abror". "Yangi asr avlodi". Toshkent. 2019. (38-39-b).
5. <https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/187>
6. Imom Al-Buxoriy. "Al-Adab Al-Mufrat". 2-jild 75-b.
7. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasida. Shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida. 431-b
8. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asar "Manaviyat" nashriyoti, T:2008 919-bet)

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИЗНЕС-ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ХЛОПКО-ТЕКСТИЛЬНОГО КЛАСТЕРА

Алиева Эльнара Аметовна - доцент кафедры

Экономика Наманганского Инженерно-технологического института;

93-916-09-14 Gmail: elnara207@list.ru

Рахимов Хусниддин Козимжанович

Студент Наманганского Инженерно-технологического института

Gmail: xrakhimov11@gmail.com

Среди отраслей промышленности нашей страны особое значение с точки зрения создания наибольшей добавленной стоимости имеет хлопчатотекстильная промышленность. Также текстильная промышленность является одной из ведущих отраслей занятости. Подтверждением нашего мнения является тот факт, что почти на 7 тысячах предприятий производственной сферы трудятся более 200 тысяч рабочих. Хлопко-текстильная промышленность является одной из наиболее развитых отраслей Наманганской области. Важность дальнейшего развития данной отрасли для региона обусловлена, прежде всего, наличием местной сырьевой базы, а также сравнительно высоким трудовым потенциалом. Это важно и с точки зрения поиска решений таких проблем, как занятость и повышение уровня жизни населения.

Согласно решению Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию хлопко-текстильного производства» в 2022 году все хозяйства, выращивающие хлопковое сырье на 63 406 га земли в 10 районах области, были полностью прикреплены к предприятиям кластера.[1]

К 2023 году в регионе будут работать 7 предприятий хлопково-текстильного кластера: ООО «Арт Софт Холдинг», ООО «Наманган Текстиль», ООО «Ташбулок Текс», ООО «Наманган Пахта Текс», ООО «Текстиль Финанс». ООО «Наманган», СП ООО «Учкурган Текстиль», ООО «Ифтихор Кийим Саноат».

Хлопко-текстильные кластеры, созданные в Наманганской области, для реализации своих целей решают следующие задачи:

- 1). Внедрение эффективных систем и методов определения стратегических и приоритетных направлений и координации выращивания хлопка и других сельскохозяйственных культур;
- 2). Установление экономического, технического, технологического и инвестиционного сотрудничества с зарубежными странами и предприятиями;
- 3). Определение конкурентной стратегии на основе регулярного изучения

спроса и предложения на хлопчатобумажную текстильную продукцию на внутреннем и внешнем рынках;

4). Внедрение новых технологий и передовых методов управления в деятельность предприятий кластера;

За счет внедрения кластеров предотвращается ухудшение качества сельскохозяйственной продукции в процессах производства, хранения и переработки, формируется система инфраструктур, обслуживающих эти процессы. С этой целью на основании решения Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 сентября 2019 года №736 «О мерах по созданию агропромышленных кластеров в Мингбулокском и Попском районах Наманганской области» ограничен Создано Ответственное общество «Арт Софт Холдинг».[2] Целью этого является привлечение прямых инвестиций в дальнейшее развитие аграрного сектора Наманганской области, создание инфраструктуры на основе передовых технологий, повышение экономического и экспортного потенциала, организация комплекса предприятий, включенных в единую технологическую цепочку. углубление переработки сельскохозяйственной продукции, выращенной в регионе, создание новых рабочих мест и повышение производительности труда в отрасли.

Следует отметить, что чем больше масштаб кластера, тем выше его потенциал и больше возможностей для повышения экономической эффективности. Считаем целесообразным при оценке деятельности хлопково-текстильных кластеров Наманганской области и определении уровня экономической эффективности использовать следующие факторные показатели:

❖ По финансовым факторам:

- увеличение прибыли предприятий, входящих в кластер – чистая прибыль;
- снижение себестоимости продукции на предприятии - вклад затрат в объем реализованной продукции, 1 сум постоянных затрат на реализованную продукцию. Себестоимость производства продукции является денежным отражением средств, затраченных на факторы, необходимые для производственно-коммерческой деятельности предприятия. Они появляются в индексе себестоимости продукции и являются денежным выражением всех материальных затрат, затрат на производство и продажу, а также затрат на рабочую силу.

- увеличение доли продукции хлопково-текстильного кластера на национальном и мировом текстильном рынке и объема доходов от реализации продукции.

❖ По фактору покупателей на внутреннем и внешнем рынках:

- объем реализованной хлопково-текстильными кластерами продукции и размер дохода от нее.

❖ **Внутренняя бизнес-среда в хлопково-текстильных кластерах:**

- закупка кластерами современного и нового оборудования - а также балансовая стоимость основных фондов;

- внедрение системы мер по снижению издержек предприятия - вклад эксплуатационных затрат в себестоимость выпускаемой продукции;

- состояние обновления состава и ассортимента продукции, выпускаемой на предприятии;

❖ **Повышение потенциала образования и кадров в хлопко-текстильных кластерах;**

- сохранение существующих трудовых коллективов на предприятиях, входящих в кластеры - численность работников;

- обеспечение оптимального соотношения производительности труда и прироста заработной платы на предприятии - пропорциональности объема продукции, приходящейся на 1 работника, и суммы средней заработной платы к нему;

- повысить уровень удовлетворенности сотрудников, работающих на предприятии - предотвратить негативные ситуации, возникающие в производственном процессе;

Сегодня хлопково-текстильные кластеры развиваются с учетом вышеперечисленных факторов, влияющих на их экономическую эффективность. В результате хлопково-текстильные кластеры региона расширяют возможности выращивания хлопкового сырья и производства готовой текстильной продукции на основе его глубокой переработки и реализации ее на национальном и мировом рынках. Также хлопко-текстильные кластеры создают новые рабочие места в сельской местности и обеспечивают жителям регулярный доход. Все это результат четко определенных факторов, влияющих на создание, развитие и экономическую эффективность хлопково-текстильных кластеров и их научное и экономическое обоснование.

Использованная литература:

1.Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию хлопково-текстильного производства». Постановление № 744 от 19 сентября 2018 года. <https://lex.uz>'.

2.Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 сентября 2019 года №736 «О мерах по созданию агропромышленных кластеров в Мингбулокском и Попском районах Наманганской области». <https://lex.uz>'.

3.Алиева Э. МОДЕЛЬ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Экономика и образование. – 2021. – №. 5. – С. 149-155.

4.Алиева Э. А. Сущность инноваций: анализ теоретических подходов //Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. – 2019. – №. 6 (108). – С. 21-31.

5.Алиева Э. А. КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА //21May, 2021. – 2021. – С. 75.

GAR JAFOKIM, GAR VAFO ...

*Yoqubova Muhayyo Nasibjon qizi**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi o'zbek tili va adabiyoti magistranti**E-mail: muhayyoyoqubova085@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" to'plami tarkibiga kiruvchi "Favoyid ul-kibar"dagi 344-g'azal tahlili keltiriladi. Unda shoirning bu g'azalni nima maqsadda yozgani, qanday ma'nolarni anglash mumkinligi to'g'risida fikrlar aytiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, g'azal, qofiya, radif, raviy, "Xazoyin ul-maoniy", "Favoyid ul-kibar", vazn, tazod, tashbeh, iyhom.

Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan olingan 344- ushbu g'azal ishqiy mavzuda yozilgan bo'lib, jami yetti baytdan iborat. Qofiyalanishi a-a, b-a, d-a, c-a tarzida qofiyalangan. Qofiyadosh so'zlari: dilistonim, jonim, yonim, sarvi ravonim, badgumonim. Qofiyadosh so'zlardan keyin qo'shimcha kelgani uchun mutlaq qofiya turiga kiradi. Radifi "sen mening" tarzida berilgan bo'lib, ikki va undan ortiq so'z berilsa, yoyiq radif yoki murakkab radif deyiladi. Raviy, ya'ni tirgak tovush "n" undoshi hisoblanadi.

Birinchi bayt:

Gar jafo qil, gar vafokim, dilistonim sen mening,

Gar meni o'ltur vagar turguzki, jonim sen mening.

Nasriy bayoni: Ushbu bayt yorga murojaat tarzida yozilgan bo'lib, garchi, menga jafo qilsang ham, vafo qilsang ham, sevgilim sensan, yoki meni o'ldirib tiriltirsang ham jonim sen bo'lib qolaverasan. Matla'(g'azalning dastlabki bayti shunday ataladi)danoq anglashiladiki, g'azal Allohga atab yozilgan. Demoqchiki, bizni tiriltirguvchi ham, jonni oluvchi ham Allohning o'zi ekanligiga ishora bor. Musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"dagi " Baqara" Surasining 28-oyatida ham shunday oyat keltiriladi:

"Allohga qanday kufr keltirasizlar? Va holbuki, jonsiz edingiz. U sizga jon berdi, so'ngra joningizni oladi va yana tiriltiradi va sizlar unga qaytajaksizlar".

Yuqorida keltirilgan oyatdan ham ko'rinib turibdiki, g'azal orifona g'azallar sirasiga kiradi.

Baytda takrir san'atidan unumli foydalanilgan, takrir—so'zlarning takrorlanishiga asoslangan she'riy san'at turi hisoblanadi. Bunda "gar" so'zi to'rt o'rinda qo'llanadi. "Vagar" so'zi va+agar so'zlarining qisqargan shakli hisoblanadi. Shu bilan birgalikda tazod(o'zaro zid ma'noli so'zlarni qo'llash) san'ati jafo va vafo so'zlari natijasida

yuzaga kelgan.

Ikkinchi bayt:

Xohi ra'no qad bila borgil yonimdin jilvagar,

Xohi kel qoshimgakim, sarvi ravonim sen mening.

Bu baytga kelib shoir mashuqasining qad-u qomati, yurish-turishi haqida yozadi.

Nasriy bayoni: agar sen mening oldimdan go'zal qomating bilan ketsang ham, yana yoniga qaytib kelsang ham, sarvi ravon, ya'ni go'zal yurishli Sevgilim bo'lib qolaverasan.

Bu baytda ikki o'rinda tanosub(bunda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlardan foydalaniladi) san'ati mavjud. Ra'no qad va sarvi ravon so'zlari, yonim va qoshim so'zlari orqali yuzaga kelgan.

Uchinchi bayt:

Ko'nglum ichra sensenu ishqing ne dey holim senga,

Chun bu yanglig' mahrami rozi nihonim sen mening.

Ko'nglumda faqat sening ishqing borligi uchun men o'z ishqimni senga qanday aytay? Hammadan yashiradigan sirdoshim sensan, degan ma'no mujassam.

Odatda, har bir musulmonning Alloh bilan yashirin suhbat bor. Masalan, boshiga kulfat kelsa ham, shodlik kelsa ham. Bu suhbatni faqat banda va Alloh biladi. Bu bayt ham xuddi shunga ishora tarzida yozilgan.

To'rtinchi bayt:

Jilva aylab har zamon, afg'onu ohim qilma ayb,

Ham sen-o'q chun boisi ohu fig'onim sen mening.

Har zamonda jilva qilib kelib, mening faryodlarimni ayblama, barcha oh-fig'onlarimning sababchisi sensan. Bundan chiqdi, go'zal mashuqa har safar o'zining sarvdek qomatini jilva qilib kelganda, mashuqaning faryodi ko'kka yetadi.

Shunga o'xshash misrani Lutfiyning mashhur "Xoh inon, xoh inonma" g'azalida ham uchratishimiz mumkin:

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,

Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Ushbu ikkala baytda ham oshiqqlar mashuqasining visoli, ularning hajrida qilgan faryodlari haqida oshiqona tashbehlar beriladi.

Beshinchi bayt:

La'lidin bir-ikki so'z mazkur qil, ey xasta jon,

Bori bu bir-ikki damkim, mehmonim sen mening.

Ushbu baytda yorga murojaat qilinadi, uni "xastajon" deb aytadi va la'l toshidek qip-qizil labidan bir-ikki og'iz so'z eshitishni va shu shularni aytish uchun uyida mehmon bo'lishini xohlaydi.

Bu baytda "bir-iki" so'zlarining ikki misrada takrorlanib kelishi takrir san'atini yuzaga keltirgan.

Oltinchi bayt:

Telbaldin garchi rad qilding meni, lek anglag'il
Kim, pari ruxsoralardin tanlag'onim sen mening.

Sening hajringda telba bo'lgan oshiqning barchasi bilan birgalikda meni rad etding, lekin shuni anglaginki, barcha pariuzlilarning ichida tanlaganim sensan. Baytda tazod san'ati mavjud, ya'ni "rad qilding" va "tanladim" so'zlari o'zaro zid ma'noda qo'llangan.

Yettinchi bayt :

O'ldi mehringdin Navoiy, bevafo debsen ani,
Ertagi nozuk mizoji badgumonim sen menng.

Sen Navoiyni mehringdan o'ldi deb, uni bevafolikda ayblaydigan, ta'bi nozik, yomon xayollarga boradigan sensan, deydi.

E'tibor bering, mashuqa oshig'ini bevafo deb unga tuhmat qilsa, oshiq, ya'ni lirik qahramon uni koyimaydi, undan xafa bo'lmaydi, shunchaki, uni yomon xayollarga borguvchim, deb erkalab qo'yish bilan kifoyalanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiyning barcha g'azal, qit'alari bir-biridan go'zal, bir biridan sermazmun. Har bir g'azalxonlik uchun hayot yo'llarida dasturulamal bo'lishga arzigulik buyuk bir san'at asari deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 3-том. Фаройиб ус-сиғар. -Т.: Фан, 1988. – Б.613.
2. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 4-том. Наводир уш-шабоб.-Т.: Фан, 1989. – Б.557.
3. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. -Т.: Фан, 1990. – Б.541.
4. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул- кибар. -Т.: Фан, 1990. 199-бет. –Б.564.
5. N. Komilov. Ma'nolar olamiga safar. T.. Tamaddun. 2012
6. P.Shamsiyev. S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. G'. G'ulom. 1973
7. N. Komilov. Tasavvuf. T.. O'zbekiston. 2009.
8. Ishaqov. Navoiy poetikasi. "Fan" 1993.
- 9.Navoiy, Alisher. 1999. Xamsat ul-muttahayyirin. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan. – B.224. (20 tomlik, 15-tom)
- 10.Navoiy, Alisher. 1993. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to'plami. – T.: Fan. – B.727. (20 tomlik, 11-tom)
11. B. To'xliyev. Navoiy g'azallari. Bayoz. 2014
12. N. M. Saidova. G'azal tahlilining o'ziga xos xususiyatlari. Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish strategiyasi: innovatsiya, ilg'or tajribalar (Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari) 20-sentabr, 2021-yil.
13. <https://fayllar.org> > navoiy-gazallari...Navoiy gazallarining goyaviy-badiiy talqini.
14. <https://cyberleninka.ru> > article > na... NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G'AZALLARIDA BADIY MAHORAT MASALASI

ALLERGIYANI TABIIY YO'LLAR BILAN DAVOLASH USULLARI

Mamadaliyev Boburjon*Central Asian Medical University talabasi, Farg'ona.***Tel:** +998 88 828 34 35*E-mail: bekmamadaliyev038@gmail.com***Ilmiy rahbar: Nasiriddinov Mavlonjon Ziyomiddinovich***CAMU Tibbiyot Fanlari Nomzodi (TFN)**Patalogiya asoslari va sud tibbiyoti kafedrasini mudiri*

Dolzarbliigi: Allergiya bugungi kunda juda keng tarqalib borayotgan patologiyalardan biridir uning natijasida odamda boshqa patologik jarayonlar ham avj olib ketadi.

ALLERGIYA (yun. allos — boshqa, o'zga, begona va ergon — ta'sir) — kishi organizmida tashqaridan ta'sir qiluvchi allergenlik xususiyatiga ega bo'lgan har xil yot moddalarga nisbatan paydo bo'ladigan o'ziga xos reaksiya. Allergik reaksiyaga sabab bo'ladigan omil "allergen" deb ataladi. Allergiya - immun reaktivlikning patologik shaklidir. Uning asosini organizm allergenlarining (avvalo antigenlar va gaptenlarning) qayta ta'siriga nisbatan tanlab spetsifik ortiqcha sezuvchanligini tashkil etadi. Allergiya organizmning xususiy to'qimalarining turli darajada ifodalangan shikastlanishi va odatda uning himoyaviy, moslanish (adaptiv) reaksiyalari, xullas butun mexanizmlari effektining pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Ba'zan bunday o'zgarish begona antigenni tashuvchi chala destruksiya uchraydi yoki organizmdan eliminatsiyalanmaydi.

ALLERGIYANING SABABLARI Allergiya allergenlar - antigen yoki antigen bo'lmagan (gapten) tabiatli, shuningdek, ba'zi fizikaviy omillar (yuqori va past harorat, UB nurlar, ionlashtiruvchi radiatsiya va h.k. ta'sirida shakllanadi.

ALLERGENLARNING TASNIFI VA TAVSIFI

Kelib chiqishi va tabiatiga ko'ra:

1. Ekzogen allergenlar (ekzoallergenlar):
 - a) ovqatga bog'liq (alimantar) allergenlar, tabiati turlicha, o'simlik yoki hayvonot dunyosiga mansub;
 - b) dori vositalari yoki sun'iy mahsulotlar bo'lishi mumkin. Avvalo, antibiotiklar, vaktsinalar va h.k. Ayniqsa, nazoratsiz va maqsadga muvofiq lashtirilmagan, bemorning allergik reaksiyalarga moyilligini tekshirmasdan ishlatiladigan vositalar;
 - v) o'simlik changi allergenlari, odatda oqsillarning karbon suvlar yoki pigmentlar kompleksidan tashkil topgan. Ular ko'pincha nafas yo'llari va ko'z shilliq pardasining shikastlanishi bilan tavsiflanadigan pollinozlarni chaqiradi;
 - g) changli allergiya - uy-ro'zg'or yoki ishlab chiqarish, ko'cha va boshqa joylardagi chang murakkab tarkibga ega, unga hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar, hasharotlar, mikroblar, sintetik to'qimalar, plastik massalar, shuningdek, boshqa organik moddalarning qoldiqlari hamda noorganik birikmalar kiradi. Ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan changlar nihoyatda turlicha va o'z-o'zidan ma'lum ixtisoslikka

bog'liq, ammo ular bakteriyalar va ayniqsa, zam burug'lar bilan zararlanishi natijasida antigenlik xususiyatiga ega bo'ladi; d) epiderm alallergenlar (terining m uguzli qavat tangachalari, qushlaming patlari, hayvon terisiningbo'lakchalari va h.k.); e) ro'zg'or-kimyoviy birikmalari (turli bo'yoqlar, kir yuvish vositalari, hid yo'qotuvchilar, pardozi vositalari va h.k.); j) zardobli allergenlar (antitanalar tutuvchi hayvonlar va odam qonining preparatlari); z) infeksiyon parazitlar allergenlar (patogen va saprofit mikroorganizmlar, viruslar, zam burug'lar va h.k.); i) fizikaviy omillar (yuqori va past harorat, har xil to'lqin uzunligidagi nurlar va h. k.).


2. Endogen allergenlar (endoallergenlar, autoantigenlar) ga organizmning o'z to'qima va hujayralarining tarkibiy qismlari (oqsillar, polipeptidlar, yirik molekular polisaxaridlar, lipopolisaxaridlar va b.).

Quyidagilar natijasida begonalik xususiyatiga ega bo'lib qolganlar kiradi: 1. Fizikaviy-kimyoviy, infeksiyon va boshqa ekzogen kelib chiqishga ega bo'lgan ta'sirlar hujayra oqsillarining denaturatsiyasini chaqiradi. Normal oqsillarning ekzogen allergenlar (gaptenlar) bilan komplekslarini hosil qiladi (gaptenlar, polilipidlar, nuklein kislotalar, ko'pchilik dorivor moddalar). Turli sabablarga ko'ra shikastlangan hujayralar, masalan gaptenlar joylashib olgan hujayralar immun tizim uchun nishonga aylanadi.

2. Tabiiy immuntolerantlikning turli sabablarga ko'ra buzilishi ba'zi a'zo va to'qimalar oqsillarini (miyelin, tireoglobulin, sperma oqsili, ko'z to'qimasi oqsili) immun tizim hujayralaridan ajratib turuvchi gistogematik to'siqlar shikastlanganda yuz beradi. Endogen allergenlar chaqiradigan allergiyaning shakllari autoallergik reaksiyalar yoki kasalliklar deb ataladi.

2010 yilda Portsmut universiteti doktori Karina Venter va uning hamkasblari tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari e'lon qilindi, unga ko'ra so'ralgan har besh kishidan biri oziq-ovqat allergiyalari bor deb da'vo qilsa, laboratoriya tekshiruvlariga ko'ra bu allergiya deb ataladigan har o'n kishidan bittasida topilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ba'zi reaksiyalar immunitetsiz psevd-allergik mexanizmlar bilan bog'liq bo'lgan.

Biroq allergen zararli emas. Shunchaki immun tizimi bu moddaga juda sezgir bo'lib qolgan. Immunitet tizimi allergiyaga ta'sir qilganda, allergenni yo'q qilish uchun antitanalar turi immunoglobulin E (IgE) ni chiqaradi. Bu organizmda allergik reaksiyaga olib keladigan kimyoviy moddalar ishlab chiqaradi. Ushbu kimyoviy moddalardan biri gistamin deb ataladi. Gistamin mushaklarning qisqarishiga olib keladi, shu jumladan qon tomirlarining devorlarida va nafas yo'llarida ham. Gistamin shuningdek burundagi shilliq ajralishiga yordam beradi.



Gistamin (Histaminum) — gistidin aminokislota hosilasi. Biogen aminlardan biri. U hayvonlar va insonlarning turli a'zo va to'qimalarida nofaol shaklda bo'ladi. Sintezlab ham olinadi. Anafilaktik shok, yallig'lanishlar va allergik reaksiyalarda (qarang Allergiya) ko'p ajraladi. Me'da shilliq qavatidagi bezlarni qo'zg'atib, shira ajralishini kuchaytiradi; mayda qon tomirlarni kengaytirib, qon oqishini tezlatadi. Gistamin bu ham garmon, ham neyrotransmitter vazifasini bajaradi. Bu shuni anglatadiki, u bir tomondan turli organlar va to'qimalarning faoliyatini o'zgartiruvchi qon orqali oqadi, ikkinchi tomondan asab tizimining faoliyatini tartibga solish uchun neyronlar tomonidan sintezlanadi. Markaziy asab tizimida, xususan miyada, gistamin ishlab chiqarilganda neyronlar orasidagi aloqasi tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Eng ko'p uchraydigan oziq-ovqat allergenlariga quyidagilar kiradi:

Baliq va dengiz mahsulotlari. Bu eng kuchli allergenlardan biridir. Dengiz baliqlari daryo baliqlariga qaraganda ko'proq allergen ekanligi ishoniladi. Ko'zga tashlanadigan alerjenik xususiyatlarga ega dengiz mahsulotlariga qisqichbaqasimonlar va molluskalar kiradi. Dengiz mahsulotlari allergenlari barqaror va pishirish, qayta ishlash, hazm qilish paytida parchalanmaydi. Ba'zi allergenlar hatto issiqlik bilan ishlov berish paytida bug'lanishi mumkin va baliq pishirganda havoda bo'lishi mumkin.

Tovuq tuxumining oqsillari eng keng tarqalgan etiologik ahamiyatga ega oziq-ovqat allergenlari qatoriga kiradi. Buning sababi, tuxumdagi oqsillar, shuningdek baliq, gistaminning chiqarilishini rag'batlantirishi mumkin. Ular orasida shuningdek, termolabile va termostabil antijenlar mavjud, allergenlar sarig'ida bo'lishi mumkin. Tuklar, kepek va parranda bilan o'zaro o'zaro ta'sirlanish kuzatilishi mumkin.

Sut. Sutning tarkibi turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan juda ko'p turli xil oqsillarni o'z ichiga oladi, shuning uchun sut allergiyasining batafsil namoyon bo'lishi turli odamlarda farq qilishi mumkin. Ushbu allergenlar turli xil barqarorlikka ega. Ulardan ba'zilari yuqori darajada barqaror bo'lib, ularni hatto sut va sut formulalarida ham saqlash mumkin, ba'zilari uzoq vaqt qaynash va / yoki sutni achish bilan o'z xususiyatlarini yo'qotadilar.

Shunday qilib, zardobdagi albumin tanasi 60-70°C da, va kazein 120S ga qadar qizdirilganda ham allergen xususiyatini yo'qotmaydi. Boshqa sutemizuvchilarning suti ham allergenik xususiyatlarga ega emas. Kamroq ishlatilganligi sababli, ular uchun sensitizatsiya kamroq uchraydi.

1. Selderey (karafs)ning dorivorlik xususiyati eramizdan oldingi asrlarda ham ko'pchilikka ma'lum bo'lgan. Tabiblar qadimdan to bugunga qadar teridagi yaralarni tez bitirishda, tanaga quvvat berishda, [nafas qisishi](#) (astma)da va ko'krakdagi og'riqlarni qoldirib, allergiya tufayli badanga toshma toshishida seldereydan foydalanishgan.

2. Dafna bargidan 5 donasini 200ml suvda o'n daqiqa qaynatiladi va bir soat damlab qo'yiladi. So'ngra suzib, kun davomida 5-6 mahal allergik diatezni davolashda bir choy qoshiqdan ichiladi. Shu qaynatma terining qichiydigan joylariga surtiladi.

3. Yong'oq bargi yoki ittikanak o'tidan 100-150gr olib, sakkiz litr qaynoq suvda yarim soat damlab qo'yiladi. So'ngra suzib, vannaga solinadi. Suv harorati 37,5°C

daraja bo'lishi kerak. Har ikki kunda 10-15 daqiqadan vanna qabul qilinadi.

4. Allergiya kasalligida terida pufakchalar paydo bo'lsa, qichisa va qizarsa, isiriqni qaynatib, suviga cho'milish tavsiya etiladi. Buning uchun isiriq mevasi bilan bandini maydalab, qaynab turgan suvga solinadi va 2-3 daqiqa qaynatib, shu qaynatmani qo'shib cho'milish kerak.

